



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITVYI V AGRAPHOМ SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Raximov Zikrullo Soyibjon o‘g‘li

Toshkent Westminster xalqaro universiteti

Xalqaro biznes yo‘nalishi magistranti

Email: zikrullorahimov146@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘ylab maishiy chiqindilarni qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki chiqindilarni qayta ishlash nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir qiladi, balki yangi ish o‘rinlari hosil bo‘lishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu maqolada chiqindilarni qayta ishlashni boshqarish tizimi, chiqindilarni saralash va ularni qayta ishlash muammolari yoritib berilgan. Tadqiqot davomida aylanma iqtisodiyot tamoyillari, resurslardan unumli foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish haqida so‘z borgan. Chiqindilarni qayta ishlashda jahon tajribasi va bu borada peshqadam mamlakatlar tajribasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma iqtisodiyot, chiqindilarni qayta ishlash, iqtisodiy o‘shish.

Abstract. Currently, household waste recycling is gaining vital importance worldwide. This is because waste recycling not only has a positive impact on a country’s economy but also serves as a key driver of new job creation. Furthermore, this article highlights the waste management system, as well as the challenges of waste sorting and recycling. Throughout the study, the principles of a circular economy, efficient resource utilization, and reduction of production costs are discussed. The article also addresses global practices in waste recycling and the experiences of leading countries in this field.

Key words: circular economy, waste recycling, economic growth.

Аннотация. В настоящее время переработка бытовых отходов приобретает важное значение во всём мире. Это связано с тем, что утилизация отходов не только оказывает положительное влияние на экономику страны, но и служит ключевым фактором создания новых рабочих мест. Кроме того, в данной статье освещаются система управления отходами, а также проблемы сортировки и переработки мусора. В ходе исследования рассматриваются принципы циклической (круговой) экономики, эффективное использование ресурсов и снижение производственных затрат. Также в работе анализируются мировой опыт в области переработки отходов и практика ведущих стран в этой сфере.

Ключевые слова: циркулярная экономика, переработка отходов, экономический рост.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida chiqindilarni boshqarish va ularni qayta ishlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining ortishi, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyalashuvi, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi hamda turizm sohasining rivojlanishi chiqindilarni qayta ishlash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2025-yildagi PF-56-sonli Farmoni [4] qabul qilindi. Mazkur Farmon asosida mavjud chiqindi poligonlarini optimallashtirish, ular hududida maxsus ekosanoat zonalarini tashkil etish, shuningdek, ushbu zonalarda chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar va aniq vazifalar belgilab berildi. Farmonga muvofiq, sohaga aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish vazifasi ham tegishli tashkilotlar zimmasiga yuklatildi.

Dunyo tajribasi aylanma iqtisodiyotning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu nafaqat yashil iqtisodiyotning keng quloch yoyishiga, shuningdek, chiqindilarni imkon qadar kamaytirishga, chiqindilarni qayta ishlash orqali mahsulotni yana sanoatga qaytarish yoki yangi energiya olish imkonini beradi. Tadqiqot davomida maishiy chiqindilarni qayta ishlash rivojlangan mamlakatlar modeli misolida ham tahlil qilinadi.

Yurtimizda yiliga juda katta miqdorda maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Bu chiqindilarning katta qismini shisha, qog‘oz va plastik chiqindilar tashkil qiladi, lekin statistik ma‘lumotlarni tahlil qilsak, juda katta hajmda maishiy chiqindilar maxsus poligonlarga tashlanmoqda. Bu vaziyatning naqadar murakkab ekanligini ko‘rsatmoqda,



chunki shisha va plastik chiqindilar ming yillab yer tarkibida parchalanmasdan qoladi. Yuqorida keltirganimiz Prezidentimizning 2025-yildagi Farmoni aynan mana shunday muammolarni bartaraf etish, aylanma iqtisodiyotga amaliy o'tishning dolzarbligi sharoitida qabul qilingan va bu Farmon hozirgi kunda bu boradagi ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonning mavjud ishlab chiqarish va resurs salohiyatini hisobga olsak, aynan shisha va qog'oz chiqindilarini 100% qayta ishlash imkoniyatiga ega ekanligimiz va juda kam miqdorda chiqindi qayta ishlanib, imkoniyatlardan unumli foydalanilmayotganligi muallifning bu tadqiqotga qo'l urishiga sabab bo'ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chiqindilarni qayta ishlash va aylanma iqtisodiyot mavzusi jahonning ko'plab olimlari ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Jumladan, Martin Geissdoerfer va uning hammualliflari (2017) chiqindilarni iqtisodiyotga qaytarish, resurslardan samarali foydalanish hamda aylanma iqtisodiyotni resurslarning yopiq holda aylanishiga asoslangan barqaror model sifatida ta'riflab bergan. Seng-Yi Leong (2023) va uning hammualliflari 4R modeli (Reduce, Reuse, Recycle, Recover) chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanishda muhim mexanizm ekanligini tushuntirib bergan. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish, qayta ishlash, aylanma iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish mavzulari ham boshqa ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan.

Shunga qaramay, zamonaviy dunyoning yangi muammolari hamda O'zbekiston sharoitida bu masalani amaliy jihatdan hal qilish dolzarb muammo ekanligi bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Chunki bu boradagi amaliy ishlarni hayotga tatbiq qilishda ularni amalga oshirish yo'llari, hayotga tatbiq qilish mexanizmlari va usullarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiyaga asoslangan tadqiqot usullaridan hamda zamonaviy usullardan foydalangan holda chiqindilarni qayta ishlash va bu jarayonni samarali amalga oshirish mexanizmlari jiddiy va dolzarb tahlil hamda tadqiqotlarga yo'naltirildi. Maqola uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar aylanma iqtisodiyot va chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi tadqiqotga oid maqolalardan olingan. Amaliy ma'lumotlar esa rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi sonining ko'payib borishi, ishlab chiqarishning miqdor va tarkib borasidan o'sib borishi, shuningdek, iste'mol hajmining o'sishi maishiy chiqindilar paydo bo'lishida asosiy omil hisoblanadi. Maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonlarini yanada takomillashtirish ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina misol: O'zbekistonda hozirda jami 185 ta qattiq maishiy chiqindi poligoni mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 1446,04 gektarni tashkil etadi (Yuz.uz, 2024). Maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha hukumatimiz tomonidan sohada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi PQ-4477-sonli "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori [3] hamda 24.03.2025-yildagi PF-56-sonli "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [4] asosida joylarda tegishli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish madaniyatini yanada oshirish iqtisodiyot tarmoqlari hamda aholi ishtirokida tizimli yondashuvni talab etadi.

Aholimizning ekologik madaniyatini oshirmasdan turib, biz bu borada olg'a qadam bosishimiz qiyin. Chunki aholining juda katta qismi hali ham maishiy chiqindilarni tashlashda ularni turi bo'yicha emas, umumiy tarzda chiqindixonalarga tashlab ketishmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari — Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada aholi tomonidan chiqindilarni turi bo'yicha tashlash madaniy jihatdan yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Aynan shu holat maishiy chiqindilarni qayta ishlash jarayonida ishni birmuncha yengillashtiradi. Ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan jarayonda bu jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aholimiz o'rtasida maishiy chiqindilarni tashlashda madaniy jihatdan saviyali tarzda harakat qilish zarur. Har bir fuqaromiz shu yurtning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib rivojlanishida va ekologik toza muhitga erishishda o'z zimmasiga qo'yilgan burchlarini bajarishi lozim.

Bundan tashqari, joylardagi mahalliy organlar tomonidan chiqindilarni yig'ish va saralash bosqichlariga yetarli darajada e'tibor berilmay, ayrim ishlar rasmiyatchilik asosida bajarilmoqda. Shuning uchun bu borada ishlarning samarali amalga oshirilishida mahalliy hokimiyat idoralaridan katta mas'uliyat talab etiladi. Chunki aynan maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali ularni chiqindi sifatida chiqarib yubormasdan yana iqtisodiyotga qaytarish iqtisodiyotga sezilarli iqtisodiy samara beradi. Maishiy chiqindilar kategoriyalariga ko'ra, ular o'z



navbatida qattiq maishiy chiqindilar, suyuq maishiy chiqindilar, yirik gabaritli maishiy chiqindilarga bo'linadi (norma.uz, 2019).

1-Jadval. Maishiy chiqindilar turlari

Qattiq maishiy chiqindilar	shisha, rezina, qog'oz, oziq-ovqat, plastik, yog'och va hokazo.
Suyuq maishiy chiqindilar	ishlab chiqarish natijasida hosil bo'ladigan oqava suv o'ralari, markazlashmagan kanalizatsiya chiqindilari
Yirik gabaritli maishiy chiqindilar	yirik gabaritli mebellar, maishiy texnikalar va hokazo.

Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda maishiy chiqindilarning yillik hosil bo'lishi o'rtacha 14–14,5 mln tonnani tashkil qilmoqda. Agar aholining yillik o'sish sur'atining 1,5 foizligini inobatga olsak, ushbu ko'rsatkich 2028-yilga kelib 16–16,7 mln tonnagacha yetishi prognoz qilinmoqda. Misol uchun, 2024-yilda yurtimizda 14,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'lgan bo'lsa, shundan 900,5 ming tonnadan ortig'i, ya'ni atigi 6 foiz qismi qayta ishlangan, xolos. Qog'oz va shisha misolida vaziyatni chuqurroq tahlil qilsak, qog'ozning 26 foizi va shishaning 9 foiz qismigina qayta ishlanmoqda (Uza.uz, 2025). Bu degani, shishaning 91 foizi va qog'ozning 74 foiz qismi poligonlarda qolib ketmoqda.

Qayta ishlashning samarasini shisha misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, shishani qayta ishlash yangi shisha ishlab chiqarishga nisbatan energiyani 40 foizga tejaydi. Chunki qayta ishlangan shisha yangi ishlab chiqariladiganiga qaraganda pastroq haroratda eriydi, bu esa mahsulot tannarxini kamaytiradi (sciencedirect.com, 2004). Qog'oz chiqindilarini qayta ishlash ham ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, qayta ishlangan qog'oz ishlab chiqarishda energiya sarfi birlamchi xomashyoga nisbatan 28–70% kam bo'lib, har bir tonna qog'ozni qayta ishlash 3000–4000 kWh elektr energiyasi hamda katta hajmdagi suv resurslarini tejash imkonini beradi (sciencedirect.com, 2004). Poligonlarda qayta ishlash imkonsiz bo'lgan chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasini olish ham iqtisodiy o'sishimizga katta samara beradi. Ohangaron poligonida chiqindini kuydirish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarayotgan Janubiy Koreya kompaniyasi bunga misol bo'la oladi.

Chiqindilarni qayta ishlash sanoati iqtisodiyotda multiplikator vazifasini o'taydi, ya'ni yangi qayta ishlash korxonalari va ekosanoat zonalari vujudga kelib, chiqindidan yangi energiya ishlab chiqarish loyihalari orqali yangi ish o'rinlari hosil bo'ladi. Ularni qayta ishlash nafaqat mahsulot tannarxini pasaytiradi, shuningdek, yangi ish o'rinlarini vujudga keltirib, aholi xarid quvvatini oshiradi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi. Chiqindilarni qayta ishlash poligonlar sonini qisqartirib, ulardan ekologiyaga yetadigan zararni kamaytiradi. Bundan tashqari, chet eldan investitsiyalar jalb qilinib, davlat g'aznasiga tushadigan soliqlar hajmi ortadi, bu esa ko'plab hududlarda o'z-o'zidan ishlab chiqarish hajmlarini oshiradi. Masalan, Janubiy Koreyaning Sejin G&E kompaniyasi O'zbekistonda chiqindidan elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasini boshqarib, bu borada samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari maishiy chiqindilarni qayta ishlashni amalga oshirish uchun puxta o'ylangan iqtisodiy tizimlardan foydalanmoqda. Ayniqsa, Germaniya va Janubiy Koreya modeli "aylanma iqtisodiyot"ning yuksak modellari hisoblanadi. Masalan, Germaniya "depozit" tizimini samarali qo'llab kelmoqda. Unga ko'ra, aholi plastik yoki shisha idishli mahsulot sotib olsa, mahsulot narxiga qo'shimcha alohida depozit to'laydi. Keyinchalik mijoz o'sha bir martalik idishlarni davlat tomonidan maxsus belgilangan joyga topshirib, mahsulot sotib olishda to'lagan depozit pullarini qaytarib olishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Germaniya aholisi ichimlik idishlarini qaytarib topshirish ko'rsatkichi 98 foizgacha yetadi. Bu chiqindini saralash va ko'chani tozalash xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (tomra.com, 2023).

Janubiy Koreya ham bu borada o'z modeliga ega. Unga ko'ra, chiqindi hajmiga qarab haq to'lash tizimi joriy etilgan. Aholi chiqindini maxsus pullik paketlarda tashlaydi va qancha ko'p chiqarsa, shuncha ko'p pul to'laydi. Qayta ishlanadigan chiqindilar esa mutlaqo bepul yig'ib olinadi. Aynan shu narsa mamlakatda aylanma iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanishini ta'minlab bermoqda. Bu borada Janubiy Koreya aholisining yuksak ekologik madaniyatini ham e'tirof etish zarur. Janubiy Koreya aholisining yashash va turmush tarzini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, aholi chiqindilarni chiqarishda o'ta yuqori madaniy saviyani ko'rsatadi, ya'ni har bir maishiy chiqindi, xoh u qog'oz bo'lsin, oziq-ovqat yoki shisha bo'lsin, albatta chiqindi uchun ajratilgan maxsus joyga tashlanadi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatayotgisi, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari, xususan, depozit tizimi sohaning rentabelligini keskin oshiradi va "aylanma iqtisodiyot" salmog'ini yuksaltiradi.

So'z o'rnida, "aylanma iqtisodiyot"ning 4 ta fazasi (4R — reduce, reuse, recycle, recover) haqida biroz to'xtalsak, bunda birinchi faza chiqindi hosil bo'lishining oldini olishni anglatadi, ya'ni ortiqcha iste'molni kamaytirish va resurslarni tejab-tergab ishlatishni ifodalaydi. Ikkinchi faza — qayta foydalanish. Misol uchun,



plastik yoki shisha idishlarni qayta ishlatish. Uchinchi faza — qayta ishlash va oxirgisi — tiklash, ya'ni energiya olish. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash va 4R modelini hayotga joriy qilishda bir qator iqtisodiy, texnik va ijtimoiy muammolar mavjud.

Quyidagi 2-jadvalda bu muammolar to'liq holda bayon qilingan.

Qayta ishlash uskunalari, avtomatik saralash liniyalari va ekologik jihatdan yuqori texnologiyalar asosan xorijdan sotib olinadi. Bu esa aynan shu sohada faoliyat yuritmoqchi bo'lgan korxonalar xarajatini oshiradi va kichik biznes uchun muammo tug'diradi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda qayta ishlash korxonalariga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq chegirmalari beriladi. O'zbekistonda ushbu sohada rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tadbirkorlik subyektlarining sohaga qiziqishini cheklashi hamda mavjud korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Qayta ishlangan xomashyodan tayyorlangan mahsulotlarga talab unchalik yuqori emas. Mazkur omil korxonalar daromadlilikini oshirish va yangi loyihalarni rivojlantirish borasida qo'shimcha rag'batlantirish choralarini talab etadi. Ayrim chiqindilarni, ayniqsa, plastik va elektron mahsulotlarni qayta ishlash birmuncha murakkab va qimmat jarayon hisoblanadi.

2-Jadval. Aylanma iqtisodiyotga o'tishda yuzaga keladigan muammolar

Iqtisodiy muammolar				
Zamonaviy texnologiyalar qiymatligi	Rag'batning kamligi	Qayta ishlangan mahsulot bozorini rivojlanmagani	Soliq imtiyozlarining yetarli emasligi	Ayrim hududlardagi yuqori xarajat
Texnik muammolar				
Chiqindi saralash infratuzilmasini yetarli emasligi	Eskirgan texnologiya va uskunalarni ishlalishi	Chiqindi yig'ish va tashish tizimida kamchiliklar	Qayta ishlash quvvatini chiqayotgan chiqindi hajmiga mos emasligi	Qayta ishlash zavodlari sonining kamligi
Ijtimoiy muammolar				
Aholini ekologik madaniyati pastligi	Chiqindini qayta ishlash targ'ibotini sustligi	Noqonuniy chiqindi tashlash holatini ko'pligi	Chiqindilarni saralash odatini shakllanmaganligi	Chiqindi kamaytirish targ'ibotini pastligi

Qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalarni o'rnida katta, masalan ayrim korxonalarda eski uskunalarni ishlatiladi. Bu texnologiyalar esa energiyani ko'p sarflaydi va qayta ishlash samaradorligini pasaytiradi. Ko'plab hududlarda chiqindilarni alohida yig'ish uchun maxsus konteynerlar mavjud emas. Natijada barcha chiqindilar aralash holda yig'iladi. Bu holat, ayniqsa chekka tumanlarda asosiy muammoga aylangan. Ba'zi chekka joylarga chiqindi yig'ish mashinalari ham juda kam boradi, konteynerlar deyarli yo'q darajada, bu holat chiqindi qayta ishlash infratuzilmasi yaxshi emasligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda hosil bo'layotgan chiqindilar hajmi qayta ishlash korxonalarini soniga mos emas, bu esa ularni maxsus poligonlarga yuborilishiga sabab bo'lmoqda.

Biz yuqorida ijtimoiy muammolar haqida so'z ochgan edik, so'z o'rnida aytish mumkinki, chiqindi qayta ishlash jahon darajasida emasligi va bu borada yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy sababi ijtimoiy muammolar hisoblanadi. Aholimiz chiqindidan tabiatga katta zarar yetkazish mumkin ekanligini, uni qayta ishlash iqtisodiy o'sishimizga ijobiy ta'sir qilishini tushunmasligi oqibatida, maishiy chiqindilarni to'g'ri tashlash va saralashga unchalik e'tibor bermayapti. Ba'zi joylarda chiqindilar maxsus belgilangan joylarga tashlanmasdan, ariqlar va qarovsiz joylarga tashlab ketilmoqda. Bu esa sanitariya-gigiyena tarafidan ham atrof-muhitga zarar yetkazmoqda. Bu holat "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga joriy etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda. Shuning uchun bu boradagi ishlarni tizimli va mas'uliyat bilan amalga oshirish zarur. Ya'ni maktab, OTM, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda qayta ishlashni mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri hamda atrof-muhitni asrash bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash va "aylanma iqtisodiyot"ni hayotga tatbiq qilish hozirgi zamon talabi bo'lib bormoqda. Afsuski, yurtimizda o'tgan yillar statistikasi qayta ishlashning o'ta past ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda, ya'ni umumiy hosil bo'lgan maishiy chiqindining 6 foizi va shishaning atigi 9 foizi qayta ishlanayotganligi iqtisodiyot va ekologiya nuqtayi nazaridan samarasiz holat hisoblanadi.



Chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash zanjiridagi uzilishlar ikkilamchi xomashyo bozorining shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Vaholanki, "aylanma iqtisodiyot"ni joriy qilish orqali ishlab chiqarishda energiyani 40 foizgacha tejash va chiqindi poligonlarini qisqartirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etish va sohada iqtisodiy o'sishni oshirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

— Germaniya tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda ham shisha va qadoq idishlar uchun depozit tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lib, bu aholi saralash madaniyatini oshirib, korxonalarni doimiy xomashyo bilan ta'minlaydi.

— Ekosanoat zonalarini kengaytirish. Ohangaron poligonida faoliyat yuritayotgan Janubiy Koreyaning "Seijin" kompaniyasi ish faoliyatini boshqa hududlarga ham kengaytirish zarur. Shuningdek, bu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shunday korxonalarga 10 yillik soliq va bojxona imtiyozlarini berish lozim.

— Plastik va shisha ishlab chiqaruvchilarning ekologik mas'uliyatini qonun bilan mustahkamlash orqali bunday korxonalarga maxsus ekologik yig'imlar va qayta ishlash majburiyatlarini yuklash ham yaxshi samara berishi mumkin.

Shunday qilib, chiqindilarni qayta ishlash va "yashil iqtisodiyot"ni yuzaga chiqarish hukumat, mahalliy idoralar, aholi tomonidan keng ko'lamli tashkiliy choralar va mas'uliyatli yondashuvni talab qilishini inobatga olsak, buni ro'yobga chiqarish kompleks va uzoq muddatli yondashuvni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? *Journal of Cleaner Production*, 143, 757–768. DOI: 10.1016/j.jclepro.2016.12.048.
2. Leong, S.-Y., Lee, S.-Y., Koh, T.-Y., & Ang, D. T.-C. (2023). 4R of rubber waste management: current and outlook. *Journal of Material Cycles and Waste Management*, 25(1), 37–51. DOI: 10.1007/s10163-022-01554-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7445858>
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. (2025). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash: "yashil" iqtisodiyot sari qadam. Gov.uz.
6. Yuz.uz. (2025). O'zbekistonda 42 ta maishiy chiqindi poligoni faoliyati tugatildi. Yuz.uz.
7. TOMRA. (2023). Germany's deposit return scheme: the world's highest-performing drink container recycling system. TOMRA.
8. Norma.uz. (2019). Maishiy chiqindilar turlari haqida ma'lumot. Norma.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>